

**TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARIDA QARZ MAJBURIYATLARI BO'YICHA
XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH**

Raqibov Shuhrat Shavkatovich

Soliq qo'mitasi huzuridagi

Fiskal institut magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10902873>

Annotatsiya: Tadbirkor sub'yektlar o'z faoliyatlarini amalga oshirish davomida na faqat o'zlik (xususiy) kapitaldan, balki qarz mablag'lardan ham foydalanadi. Qarz mablag'lardan foydalanish esa ularga mos keluvchi turli xil qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltiradi, jumladan: qisqa va uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizlar, chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha chegirmalarni amortizatsiya qilish, moliyaviy ijara bo'yicha ijara to'lovlari va boshqalar. Ushbu maqolada qarz xarajatlarni qaysi qismini kvalifikatsiyalanadigan aktivlar qiymatiga va qaysi qismini moliyaviy xarajatlarga o'tkazish ko'rsatilgan. Qarz xarajatlarni hisob-kitoblar asosida buxgalterlik yozuvlarda aniq hisobvaraqlarda qayd qilish ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: qarz bo'yicha xarajatlар; kvalifikatsiyalanadigan aktivlar; qarzlar bo'yicha xarajatlarning tan olinishi; qarzlar bo'yicha xarajatlarni kapitalizatsiya qilishning boshlanishi; qarzlar bo'yicha xarajatlarni kapitalizatsiya qilishning to'xtatilishi, qarz olish xarajatlarni hisobga olish usullari.

**IMPROVING THE ACCOUNTING OF DEBT OBLIGATIONS FOR BUSINESS
ENTITIES**

Abstract. economic entities in the process of carrying out their activities use not only their own (private) capital, but also borrowed funds. On the other hand, the use of borrowed funds entails various additional costs corresponding to them, including: interest on short-term and long-term loans, depreciation of deductions on issued bonds, lease payments on finance leases, etc. This article shows how much of the debt costs are transferred to the value of qualifying assets, and how much is transferred to finance costs. Accounting entries based on calculations indicate the accounting of loan expenses on specific accounts.

Keywords: debt costs; qualifying assets; recognition of debt costs; beginning of capitalization of debt costs; termination of capitalization of debt costs, methods of accounting for borrowing costs.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ЗАТРАТ ПО ДОЛГОВЫМ ОБЯЗАТЕЛЬСТВАМ
У СУБЪЕКТОВ ХОЗЯЙСТВОВАНИЯ**

Аннотация. хозяйствующие субъекты в процессе осуществления своей деятельности используют не только собственный (частный) капитал, но и заемные средства. С другой стороны, использование заемных средств влечет за собой различные дополнительные расходы, соответствующие им, в том числе: проценты по краткосрочным и долгосрочным кредитам, амортизация вычетов по выпущенным облигациям, арендные платежи по финансовой аренде и т. д. В этой статье показано, какая часть расходов по долгу переносится на стоимость квалифицируемых активов, а какая-на финансовые расходы. В бухгалтерских проводках на основе расчетов указывается учет расходов по займу на конкретных счетах.

Ключевые слова: затраты по долгам; квалифицируемые активы; признание затрат по долгам; начало капитализации затрат по долгам; прекращение капитализации затрат по долгам, методы учета затрат по займам.

Kirish. Xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar o‘z faoliyatlarini amalga oshirish davomida iqtisodiy resurslar bilan ta’minlashning 2 xil manbasidan foydalanadilar:

- O‘zlik yoki xususiy capital;
- Qarz mablag‘lari.

O‘zlik yoki xususiy kapital aktsiyalarni chiqarish va sotish, mulkdorlar ulushlari hamda badallari hisobiga tashkil qilinsa, qarz mablag‘lari jumlasiga uzoq va qisqa muddatli bank kreditlari, chiqarilgan obligatsiyalar, moliyalashtirilgan ijara, mol yetkazib beruvchilar yoki xaridorlardan qarzlarni kiritish mumkin.

Qarz mablag‘laridan foydalanish qarz oluvchi xo‘jalik yurituvchi sub’yekt uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida ularga mos keluvchi turli xil qo‘srimcha xarajatlarni yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar sharhi. Buxgalteriya hisobining milliy standarti – 24 “Qarzlar bo‘yicha xarajatlarni hisobi” va MCFO (IAS) 23 «Затраты по заимствованию»da usbu masalaga tarif berilgan, xarajatlarni qachon karitalizatsiya qilish va qachon to’xtatish haqida ma’lumot berilgan. Ammo foizlarni o‘rtacha tortilgan qiymatini hisoblash va hisobvaraqlarda qanday yozuvlar qilinishi ko‘rsatilmagan.

Xasanov B.A. va boshqalar asarida turli kreditorlar bilan hisob-kitoblar masalasi aniq ko‘rsatilgan bo‘lsada, lekin qarslar bo‘yicha xarajatlarni hisobi chetda qolib ketgan. Urazov K.B. va boshqalar asarida ham bu mavzuga e’tibor berilmagan. Alisenov A.S/ va Babayev Yu.A. kitoblarida ham xarajatlarni kapitalizatsiyasi ko‘rib chiqmagan.

Tahlil qilgan adabiyotlar va me’yoriy hujjatlar shuni ko‘rsattiki ko‘rayotgan masala bo‘yicha tatqiqotlar mavjud emas.

Qarz bo‘yicha xarajatlarni hisoblash – bu qarz mablag‘lari bilan bog‘liq bo‘lgan foizlar va boshqa xarajatlarni shu jumladan:

- qisqa va uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha foizlar, shu jumladan bank overdrafti bo‘yicha foizlar (bank tomonidan joriy hisobvaraqdagi qoldiqdan ortiq to‘langan summa);
- chiqarilgan obligatsiyalar bo‘yicha chegirmalarni amortizatsiya qilish;
- mablag‘larni qarzga olishda qo‘srimcha xarajatlarni;
- moliyaviy ijara (lizing) bo‘yicha ijara to‘lovlar;
- chet el valyutasidagi qarzlar bo‘yicha yuzaga keladigan kurs farqlari, agar foiz xarajatlariga tuzatish sifatida qaralsa.

Aniq bir vaziyatlarga bog‘liq ravishda, belgilangan maqsadi bo‘yicha foydalanish holatigacha keltirilishi salmoqli vaqtini talab etadigan quyidagi aktivlar kvalifikatsiyalanadigan aktivlar bo‘lib hisoblanishi mumkin: binolar, inshootlar, ishlab chiqarish mashinalari va uskunalar, nomoddiy aktivlar, elektr stantsiyalari, investitsiya ko‘chmas mulki va shu kabilalar. Boshqa turdagani investitsiyalar va har kuni katta miqdorlarda, qayta takrorlanadigan asosda ishlab chiqariladigan tovar-moddiy zahiralari, garchand ularning ishlab chiqarilishi uzoq muddatni talab etgan taqdirda ham (masalan, viski, vino, konyak va shu kabilarni ishlab chiqarish)

kvalifikatsiyalanadigan aktiv bo‘lib hisoblanmaydi.

Xarid qilish paytida belgilangan maqsadi bo‘yicha foydalanish uchun yoki sotish uchun tayyor bo‘lgan aktivlar kvalifikatsiyalangan aktiv bo‘lib hisoblanmaydi.

Yer maydoni kvalifikatsiyalangan aktiv bo‘lib hisoblanmaydi. Biroq, agarda yer maydonida biror-bir yer tuzilish ishlari amalga oshirilayotgan bo‘lsa, qarzlar bo‘yicha xarajatlarni yer maydoni qiymatiga qo‘sish mumkin, chunki ushbu xarajatlar mazkur yer maydonini foydalanishdan yoki uni sotishdan olingan daromadlar bilan solishtiriladi (qoplanadi).

Agar yer maydoni xarid qilib olingan va yer tuzilish ishlari bino yoki inshootlarni qurish maqsadida amalga oshirilayotgan bo‘lsa, bunday hollarda qarzlar bo‘yicha xarajatlar yer maydoni qiymatiga emas, balki qurilayotgan ob’yektlar qiymatiga qo‘shilishi lozim.

Qarzlar bo‘yicha xarajatlarning tan olinishi. Qarzlar bo‘yicha xarajatlar, kapitalizatsiya qilinadigan qismidan tashqari qolgan qismi, ular amalga oshirilgan davrning xarajatlari (moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar) sifatida tan olinishi lozim.

Kvalifikatsiyalangan aktivni xarid qilish, qurish yoki ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan qarzlar bo‘yicha xarajatlar ushbu aktivning tannarxiga olib borish yo‘li orqali kapitalizatsiya qilinishi lozim.

Qarzlar bo‘yicha xarajatlar kvalifikatsiyalangan aktivning qiymatiga qo‘sish yo‘li bilan kapitalizatsiya qilinadi, agarda undan xo‘jalik yurituvchi sub’yekt kelgusida iqtisodiy manfaatlar olishi mumkin bo‘lsa va agar bunda xarajatlarni ishonchli o‘lchash imkoniyati mavjud bo‘lsa.

Kapitalizatsiya qilish uchun ruxsat etilgan qarzlar bo‘yicha xarajatlar. Kvalifikatsiyalangan aktivni xarid qilish, qurish yoki ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan qarzlar bo‘yicha xarajatlar – bu, agar tegishli aktiv uchun xarajatlar amalga oshirilmagan taqdirda, vujudga kelmasligi mumkin bo‘lgan qarzlar bo‘yicha xarajatlardir. Aniq bir kvalifikatsiyalangan aktivni xarid qilish uchun xo‘jalik yurituvchi sub’yekt mablag‘larni aynan shu maqsadda chetdan jalb qilgan hollarda, ushbu aktiv bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan qarzlar bo‘yicha xarajatlar aniq ravishda belgilanishi (o‘rnatalishi) mumkin.

Qarzlar bo‘yicha xarajatlar – mablag‘larni qarzga olish munosabati bilan yuzaga keluvchi xarajatlar bo‘lib, ular tarkibiga quyidagilar kiradi:

- qisqa va uzoq muddatli qarzlar bo‘yicha foizlar (bank overdrafti bo‘yicha foizlarni qo‘sghan holda);
 - chiqarilgan obligatsiyalar bo‘yicha chegirmalar amortizatsiyasi;
 - mablag‘larni olishda paydo bo‘lgan qo‘sishimcha sarflar;
 - moliyalashtirilgan ijara bo‘yicha ijara to‘lovi;
 - xorijiy valyutada qarz olinganda foizlarni to‘lash xarajatlariga tuzatish sifatida yuzaga kelgan kurslardagi farqlar va boshqalar.

Ko‘rib turganimizdek, bu xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlari yoki davr xarajatlari deb tan olinishi haqida darhol bir fikr aytib bo‘lmaydi, chunki olingan qarzlar yoki ishlab chiqarishni davom ettirish uchun yoki asosiy vositalarni xarid qilish, qurish yoki yana boshqa bir maqsadlar uchun olingan bo‘lishi mumkin. Har qanday holda ham buxgaltering assosiy vazifasi yuzaga kelgan xarajatlarni moliyaviy hisobot moddasi sifatida o‘z vaqtida va maqsadga muvofiq tan olishi kerak.

Aniq bir qarz va kvalifikatsiyalangan aktiv o‘rtasida bevosita bog‘liqlikni aniqlash va

teskari holatda jalg qilmaslik mumkin bo‘lgan qarzlarni aniqlash qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Mazkur turdag'i qiyinchiliklar quyidagi hollarda:

- xo‘jalik yurituvchi sub’yektning moliyaviy faoliyat markazlashtirilgan tartibda muvofiqlashtirilgan bo‘lsa;

- xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar guruhi turli foiz stavkalari bo‘yicha qarz mablag‘larini olish uchun qator qarz majburiyatlaridan foydalansa va ushbu mablag‘larni guruhga kiruvchi xo‘jalik jamiyatlariga turli asoslarda qarzga bersa, paydo bo‘lishi mumkin.

Mazkur holat valyuta kurslarining tebranishida, shuningdek yuqori inflyatsiya sharoitida chet el valyutasida denominatsiya qilingan yoki unga bog‘langan qarzlar guruh tomonidan foydalangan hollarda yanada mushkullashadi. Bular natijasida kvalifikatsiyalangan aktivni xarid qilish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan qarz mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha xarajatlar miqdorini aniqlash qiyinlashadi va u xo‘jalik yurituvchi sub’yekt rahbariyatining professional mulohazasiga asoslangan baholashni talab etadi.

Kvalifikatsiyalangan aktivni xarid qilish uchun maxsus jalb qilingan qarz mablag‘lari doirasida mazkur aktiv bo‘yicha kapitalizatsiya qilish uchun ruxsat etilgan qarzlar bo‘yicha xarajatlar summasi, ushbu qarz bo‘yicha davr mobaynida qilingan haqiqiy xarajatlardan ushbu qarz mablag‘larini vaqtinchalik investitsiya qilishdan olingan har qanday investitsiya daromadi summasini chegirib tashlangandan so‘ng qolgan summa sifatida aniqlanishi lozim.

Kvalifikatsiyalangan aktivni moliyalashtirish bo‘yicha kelishuvlar xo‘jalik yurituvchi sub’yekt tomonidan qarz mablag‘larini olishga va ushbu mablag‘larning bir qismi yoki hammasi kvalifikatsiyalangan aktiv uchun qilingan xarajat sifatida ishlatalishidan oldin, ular bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitlarda qarz mablag‘lari ko‘p hollarda, ular kvalifikatsiyalangan aktiv uchun sarflangunga qadar vaqtincha investitsiya qilinishi mumkin.

Davr mobaynida kapitalizatsiya qilish uchun ruxsat etilgan qarzlar bo‘yicha xarajatlar summasini aniqlashda bunday mablag‘lardan olingan har qanday investitsiya daromadi amalga oshirilgan qarzlar bo‘yicha xarajatlar summasidan chegirib tashlanadi.

Umumiy maqsadlarda jalb qilingan va kvalifikatsiyalangan aktivni xarid qilish uchun foydalanilgan qarz mablag‘lari doirasida kapitalizatsiya qilish uchun ruxsat etilgan qarzlar bo‘yicha xarajatlar summasi ushbu aktiv uchun amalga oshirilgan xarajatlarga nisbatan kapitalizatsiya stavkasini qo‘llash orqali aniqlanishi lozim.

Kvalifikatsiyalangan aktivni xarid qilish uchun maxsus olingan qarzlardan tashqari, davr mobaynida xo‘jalik yurituvchi sub’yektning qoplanmay qolgan qarzlariga nisbatan hisoblangan qarzlar bo‘yicha xarajatlarning o‘rtacha tortilgan miqdori kapitalizatsiya stavkasi bo‘lib hisoblanadi.

Davr mobaynida kapitalizatsiya qilingan qarzlar bo‘yicha xarajatlar summasi ushbu davr mobaynida amalga oshirilgan qarzlar bo‘yicha xarajatlar summasidan oshib ketmasligi lozim.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishda qarzlar bo‘yicha xarajatlarning o‘rtacha tortilgan miqdorini hisoblash maqsadida bosh va sho‘ba xo‘jalik jamiyatlarining barcha qarzlarini kiritish mumkin yoki boshqa sharoitlarda har bir sho‘ba xo‘jalik jamiyati uchun mazkur sho‘ba xo‘jalik jamiyatining qarz mablag‘lariga nisbatan hisoblangan qarzlar bo‘yicha xarajatlarning o‘rtacha tortilgan miqdorini qo‘llash mumkin.

Kvalifikatsiyalangan aktiv balans qiymatining uning joriy qiymatidan oshib ketishi.

Kvalifikatsiyalangan aktivning balans qiymati yoki ko‘zlangan yakuniy tannarxi uning joriy qiymatidan yoki sof sotish qiymatidan oshib ketsa, uning balans qiymati buxgalteriya hisobi bo‘yicha qonun hujjatlari talablariga muvofiq qisman yoki to‘liq hisobdan chiqariladi. Bunda, ayrim holatlarda kvalifikatsiyalangan aktiv qiymatining ilgari amalga oshirilgan qisman hisobdan chiqarilgan miqdori buxgalteriya hisobi bo‘yicha qonun hujjatlara muvofiq qayta tiklanishi mumkin.

Qarzlar bo‘yicha xarajatlarni kapitalizatsiya qilishning boshlanishi. Xo‘jalik yurituvchi sub’yekt qarzlar bo‘yicha xarajatlarni kapitalizatsiya qilishni kvalifikatsiyalangan aktiv tannarxining bir qismi sifatida kapitalizatsiya qilishni boshlash sanasidan boshlab amalga oshirishi lozim. Kapitalizatsiya qilishni boshlash sanasi bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi sub’yekt bir vaqtning o‘zida birinchi marta quyida keltirilgan shartlarning barchasiga muvofiq kelish sanasi hisoblanadi:

- mazkur aktiv bo‘yicha xarajatlarni amalga oshirganda;
- qarzlar bo‘yicha xarajatlarni amalga oshirganda;
- aktivni belgilangan maqsadi bo‘yicha ishlashga yoki sotishga tayyorlash uchun zarur bo‘lgan faoliyatni amalga oshirganda.

Kvalifikatsiyalangan aktiv uchun qilingan xarajatlar faqatgina pul to‘lovlarida, boshqa aktivlarni o‘tkazib berishda yoki foizli majburiyatlarni qabul qilishda ifodalangan xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Xarajatlar mazkur aktiv bilan bog‘liq oraliq to‘lovlar va O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (10-sonli BHMS) “Davlat subsidiyalari hisobi va davlat yordamining oshib berilishi”da ko‘zda tutilgan tartibda olingan subsidiyalar miqdoriga kamaytiriladi.

Ilgari kapitalizatsiya qilingan qarzlar bo‘yicha xarajatlarni o‘z ichiga olgan davr davomidagi aktivning o‘rtacha balans qiymati odatda ushbu davrda kapitalizatsiya stavkasi qo‘llaniladigan xarajatlarning asoslangan taxminiy qiymatiga teng bo‘ladi.

Aktivni belgilangan maqsadlarda ishlashga yoki sotishga tayyorlash uchun zarur bo‘lgan faoliyat nafaqat aktivning o‘zini jismoniy yaratishini o‘z ichiga oladi. Unga aktivni jismoniy yaratishni boshlashdan oldin amalga oshiriladigan texnik va ma’muriy ishlari ham kiradi, masalan, qurilishni boshlash uchun zarur bo‘lgan ruxsatni olish bilan bog‘liq faoliyat. Biroq, bunday faoliyatga aktivga egalik qilish taalluqli emas, agarda bunda uning holatini o‘zgartiruvchi ishlab chiqarish yoki modifikasiya bo‘lmasa. Masalan, qurilish uchun yerni tayyorlash ishlari amalga oshirilgan davrda qarzlar bo‘yicha amalga oshirilgan xarajatlar ushbu ishlarni amalga oshirish davri davomida kapitalizatsiya qilinadi. Biroq, kelgusida qurilish uchun sotib olingan yer, unda hech qanday tayyorlash ishlari olib borilmasdan egalik qilib turilgan davrdagi qarzlar bo‘yicha xarajatlar kapitalizatsiya qilinmaydi.

Qarz olish xarajatlarini hisobga olish usullari

23-IFRS, 7-band: “qarz olish xarajatlari ular yuzaga kelgan davr uchun xarajatlar sifatida tan olinishi kerak”.

Ba’zi hollarda, UFRS qarzlar bo‘yicha xarajatlarni hisobga olishning muqobil tartibini taqdim etadi: “Kvalifikatsiyalananidan aktivni sotib olish, qurish yoki ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan qarz xarajatlari ushbu aktivning qiymatining bir qismi sifatida kapitallashtirilishi mumkin”.

Karzlarni hisobga olishning asosiy usuli

“Dilafro‘z” kompaniyasi yiliga ikki marta – 30-iyun va 31-dekabrda foizlarni to‘lash sharti bilan besh yil muddatga yillik 24 foizli 500 mln. so‘m miqdorida maqsadli bo‘lmagan kredit oldi.

30 iyun va 31 dekabr kunlari buxgalteriya yozuvlar beriladi:

| | |
|---|------------|
| D-t “Foiz xarajatlari” | 60 000 000 |
| K-t “Hisoblangan foizlar” (500 mln. x 0,24 x 1/2) | 60 000 000 |
| D-t “Hisoblangan foizlar” | 60 000 000 |
| K-t “Pul mablag‘lari” | 60 000 000 |

Qarz olish xarajatlarini hisobga olishning maqbul (muqobil) usuli

Qarz bo‘yicha xarajatlar faqat quyidagi hollarda tannarxning bir qismi sifatida kapitallashtiriladi:

- a) ularning kelajakda iqtisodiy foyda keltirish ehtimoli;
- b) xarajatlarni ishonchli o‘lchash qobiliyati.

Kapitalizatsiya qilinadigan qarzlar bo‘yicha xarajatlar:

- agar kreditlar ma’lum bir talabga javob beradigan aktivni sotib olish, qurish yoki ishlab chiqarish uchun maxsus olingan bo‘lsa, kapitalizatsiya qilinadigan xarajatlar miqdori hisobot davrida kreditni olish uchun qilingan haqiqiy xarajatlar sifatida, ushu kreditlar kvalifikatsiyalanadigan aktivga kapital qo‘yish uchun foydalaniunguga qadar vaqtinchalik investitsiyalardan olingan daromadlarni chegirib tashlagan holda aniqlanadi;
- agar shartli aktivni sotib olish bilan bevosa bog‘liq bo‘lgan qarzlar miqdorini aniqlash qiyin bo‘lsa, kapitalizatsiya qilinadigan xarajatlar miqdori kapitalizatsiya stavkasiga muvofiq belgilanadi. Kapitallashtirish stavkasi – hisobot davrida to‘lanmagan barcha boshqa kreditlar bo‘yicha xarajatlarning o‘rtacha tortilgan qiymati, kvalifikatsiyalanadigan aktivni olish uchun maxsus olingan kreditlar bundan mustasno.

Qarz olish xarajatlarini kapitallashtirish

Qarz olish xarajatlarini kapitallashtirish quyidagi hollarda boshlanadi:

- naqd pul to‘lovlari, aktivlarni o‘tkazish yoki majburiyatlarni o‘z zimmasiga olish tarzida ifodalangan shaklda aktivga investitsiya kiritgan bo‘lsa, aktiv bilan bog‘liq olingan har qanday subsidiyalar miqdoriga kamaytirilgan holda;
- qarzlar bo‘yicha amalga oshirilgan xarajatlar;
- aktivni maqsadli foydalanishga tayyorlash bo‘yicha zarur ishlar davom etmoqda.

Мисол:

“Oliya” kompaniyasi 2022-yil 1-yanvarda kichik bino qurilishini boshlagan. Kompaniyaning birinchi chorakdagi yagona qarzi 2024 yil 31 dekabrda to‘lanishi kerak bo‘lgan yillik 22% lik 700 mln. so‘mlik uzoq muddatli foizli veksel bo‘ldi.

2022-yil 1-mayda kompaniya 300 mln.ga 23 foizli kredit oldi. Hisob-kitob 2023 yil 30 aprelda to‘lanishi kerak.

Kompaniya qurilayotgan binolar bilan bog‘liq foiz xarajatlarini choraklik xarajatlarning o‘rtacha tortilgan qiymat asosida kapitallashtiradi.

2022 yilning olti oyi davomida qurilayotgan binoga kapital qo‘yilmalar:

| Sana 2022 y. | Xarajat (ming so‘m) | Sana 2022 y. | Xarajat (ming so‘m) |
|--------------|---------------------|--------------|---------------------|
| 1 yanvar | 40 000 | 30 aprel | 230 000 |
| 31 yanvar | 80 000 | 31 may | 460 000 |
| 28 fevral | 200 000 | 30 iyun | 90 000 |
| 31 mart | 440 000 | | |
| Jami | 760 000 | | 780 000 |

“Oliya”ning hisobot yili 31 dekabrdagi tugaydi. Foizlar har chorakda to‘lanadi.

Topshiriq:

1. O‘rtacha tortilgan qiymat usulidan foydalanib, foiz xarajatlari miqdorini hisoblang:
 - a) kapitallashuv qismi;
 - b) har chorakda xarajat sifatida tan olinishi.
2. Qurilish va foiz xarajatlari bilan bog‘liq barcha jurnal yozuvlarini ko‘rsating.

1-qismga yechim:

2022 yilning birinchi choragi:

$$\text{O‘rtacha tortilgan yig‘ilgan xarajatlar} = 40\,000\,000 + (81\,000\,000 \times 2/3) + (210\,000\,000 \times 1/3) = 164\,000\,000$$

Qarz olish xarajatlarining o‘rtacha kapitallashuv stavkasini hisoblash:

$$\text{Maqsadli bo‘limgan veksel: } (700\,000\,000 \times 22\% \times 3/12 = 38\,500\,000) / 700\,000\,000 = 0,055\%$$

Potentsial kapitallashtirilishi mumkin bo‘lgan qarzlar bo‘yicha xarajatlar (buning oldini olish mumkin edi):

$$164\,000\,000 \times 0,055\% = 9\,020\,000$$

Kapitallashtirilishi mumkin bo‘lgan qarzlar bo‘yicha xarajatlarning maksimal miqdori – 1-chorak uchun ushbu veksel bo‘yicha hisoblangan foizlar yoki xarajatlar:

$$700\,000\,000 \times 22\% \times 3/12 = 38\,500\,000$$

Eng kichik qiymat kapitallashtiriladi: 9 020 000

Xarajat sifatida tan olingan (38 500 000 – 9 020 000) 29 480 000

Biz faqat kapitalizatsiya stavkasiga muvofiq aniqlagan xarajatlar miqdorini kapitallashtirishingiz mumkin, ya’ni. 9 020 000. Farqi davr xarajatlariga o‘tkazish kerak – 29 480 000.

2011 yilning ikkinchi choragi:

Binolarni qurish uchun o‘rtacha tortilgan yig‘ilgan xarajatlar:

$$771\,000\,000 + (225\,000\,000 \times 2/3) + (450\,000\,000 \times 1/3) = 1\,071\,000\,000$$

Qarz olish xarajatlarining o‘rtacha tortilgan kapitallashuv stavkasini hisoblash:

| | |
|--------|---------|
| Asosiy | Haqiqiy |
| cymma | foiz |

$$\text{Maqsadli bo‘limgan veksel (22\%)} \quad 700\,000\,000 \times 22\% \times 3/12 = 38\,500\,000$$

$$\text{Qurilish vekseli (23\%)} \quad \underline{300\,000\,000} \times 23\% \times 3/12 = \underline{46\,000\,000}$$

| | |
|---|-----------|
| 1 000 000 000 | 84 500 |
| 000 | |
| O‘rtacha stavka: 84 500 000 / 1 000 000 000 = 0,0845% | |
| Potentsial kapitallashtirilgan qarzlar bo‘yicha xarajatlar: | |
| 1 071 000 000 x 0,0845% = 90 499 500 | |
| Kapitallashtirishi mumkin bo‘lgan qarz xarajatlarining maksimal miqdori = 84 500 000. | |
| Eng kichik qiymat kapitallashtiriladi: | 84 500 |
| 000 | |
| Xarajat sifatida tan olingan (90 499 500 – 84 500 000) | 5 999 500 |

2-qismga yechim:

Qurilayotgan binoga kapital qo‘yilmalar bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari:

| | 1-chi chorak | 2-chi chorak |
|-----------------------|--------------|--------------|
| D-t “Yer” | 40 000 000 | |
| D-t “Bino” | 720 000 000 | 780 000 000 |
| K-t “Pul mablag’lari” | 760 000 000 | 780 000 000 |

Qarz olish xarajatlarini kapitallashtirish uchun buxgalteriya yozuvlari:

| | 1-chi chorak | 2-chi chorak |
|----------------------------|--------------|--------------|
| D-t “Bino” | 2 750 | 9 750 |
| D-t ‘Foiz xarajatlari’ | 5 500 | |
| K-t “To’lanadigan foizlar” | 8 250 | 9 750 |

Belgilangan aktivning qurilishi qismlarga bo‘linib tugallanganda va qolgan qismlarni qurish davom etayotganda har bir qism mustaqil ravishda ishlatilishi mumkin bo‘lsa, agar qismni maqsadli foydalanishga tayyorlash yoki sotish bo‘yicha ishlar sezilarli darajada yakunlangan bo‘lsa, aktivning bir qismiga tegishli bo‘lgan qarz xarajatlarini kapitallashtirish to‘xtatilishi kerak. Bunday hollarda umumiy xarajatlar aktivning har bir qismining taxmini qiyamatiga mutanosib ravishda uning qismlari o‘rtasida taqsimlanishi kerak.

Qarzlar bo‘yicha xarajatlarni kapitalizatsiya qilishning to‘xtatilishi. Xo‘jalik yurituvchi sub’yekt kvalifikatsiyalangan aktivni tayyorlash bo‘yicha faol harakatni to‘xtatgan davomiy davrlar mobaynida qarzlar bo‘yicha xarajatlarni kapitalizatsiya qilishni to‘xtatishi lozim.

Xo‘jalik yurituvchi sub’yekt aktivni belgilangan maqsadda ishlatishga yoki sotishga tayyorlash uchun zarur bo‘lgan faoliyatni to‘xtatib turgan davomiy davrlarda ham qarzga olingan mablag’lar bo‘yicha xarajatlar qilishi mumkin. Bunday xarajatlarga kapitalizatsiya qilish sifatida turkumlanmaydigan tugallanmagan qurilishni saqlab turish xarajatlari kiradi. Biroq, odatda xo‘jalik yurituvchi sub’yekt asosiy (zaruriy) texnik va ma’muriy ishlarni amalga oshirayotgan davrda qarzlar bo‘yicha xarajatlarni kapitalizatsiya qilishni to‘xtatmaydi.

Vaqtinchalik to‘xtatib turish aktivni belgilangan maqsadda ishlatishga yoki sotishga tayyorlash jarayonining bir qismi bo‘lib hisoblanganda ham qarzlar bo‘yicha xarajatlarni kapitalizatsiya qilish to‘xtatilmaydi. Masalan, zahiralarni yetarli darajada yig‘ish davrida yoki suvning yuqori darajada bo‘lishi ko‘prik qurilishini kechiktirganda, agar ushbu geografik hudud uchun qurishning belgilangan davri davomida suvning bunday yuqori darajada bo‘lishi odatiy hol

bo'lsa, qarzlar bo'yicha xarajatlarni kapitalizatsiya qilish davom ettiriladi.

Qarzlar bo'yicha xarajatlarni kapitalizatsiya qilishni tugatish. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt aktivni belgilangan maqsadda ishlatishga yoki sotishga tayyorlash uchun zarur bo'lgan barcha ishlar tugatilganda qarzlar bo'yicha xarajatlarni kapitalizatsiya qilishni tugatishi lozim.

Agar kunlik ma'muriy ishlar hali ham davom etayotgan bo'lishiga qaramay, uni jismoniy yaratish tugatilgan bo'lsa, odatda ob'yekt belgilangan maqsadda ishlatishga yoki sotishga tayyor deb hisoblanadi.

Agarda kvalifikatsiyalanadigan aktivni qurish qismlar bo'yicha tugatilganda va har bir qismni boshqa qismlarni qurish davomida ishlatish mumkin bo'lsa, xo'jalik yurituvchi sub'yekt aktivning ushbu qismini belgilangan maqsadda ishlatishga yoki sotishga tayyorlash uchun zarur bo'lgan barcha ishlarni tugatganda, qarzlar bo'yicha xarajatlarni kapitalizatsiya qilish tugatilishi shart. Masalan, har biri alohida ishlatishga yaroqli bo'lgan bir necha binolardan iborat bo'lgan biznes-markaz kvalifikatsiyalanadigan aktiv hisoblanadi va undagi har bir qism boshqa qismlarni qurish hali davom etayotgan paytda ishlatilishi mumkin bo'lsa. Tashkiliy qismlaridan har qaysisi alohida ishlatilishi mumkin bo'lishidan oldin to'liq tugatilishi lozim bo'lgan kvalifikatsiyalanadigan aktivga bir maydonda joylashgan, korxonaning turli tsexlariда ketma-ketlik bilan amalga oshiriladigan bir necha ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtiradigan sanoat korxonasi misol bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Tadbirkorlik sub'yektlarida qarz majburiyatları bo'yicha xarajatlar hisobini tashkil etishda kvalifikatsiyalangan aktiv uchun qachon xarajatlarni kapitalitzatsiya qilishni boshlash va tugatishga e'tibor berish kerak. Kapitalizatsiya qilishni boshlash sanasi bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'yekt bir vaqtning o'zida birinchi marta quyida keltirilgan shartlarning barchasiga muvofiq kelish sanasi hisoblanadi: a) mazkur aktiv bo'yicha xarajatlarni amalga oshirganda; b) qarzlar bo'yicha xarajatlarni amalga oshirganda; c) aktivni belgilangan maqsadi bo'yicha ishlatishga yoki sotishga tayyorlash uchun zarur bo'lgan faoliyatni amalga oshirganda.

Xo'jalik yurituvchi sub'yekt kvalifikatsiyalangan aktivni tayyorlash bo'yicha faol harakatni to'xtatgan davomiy davrlar mobaynida qarzlar bo'yicha xarajatlarni kapitalizatsiya qilishni to'xtatishi lozim. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt aktivni belgilangan maqsadda ishlatishga yoki sotishga tayyorlash uchun zarur bo'lgan barcha ishlar tugatilganda qarzlar bo'yicha xarajatlarni kapitalizatsiya qilishni tugatishi lozim.

Tadqiqot natijasi asosida quyidagi takliflar qilmoqchimiz:

a) qarzlar bo'yicha xarajatlar, kapitalizatsiya qilinadigan qismidan tashqari qolgan qismi, ular amalga oshirilgan davrning xarajatlari (moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar) sifatida tan olinishi lozim;

b) aniq bir kvalifikatsiyalangan aktivni xarid qilish uchun xo'jalik yurituvchi sub'yekt mablag'larni aynan shu maqsadda chetdan jalb qilgan hollarda, ushbu aktiv bilan bevosita bog'liq bo'lgan qarzlar bo'yicha xarajatlar aniq ravishda belgilanishi (o'rnatilishi) mumkin;

c) davr mobaynida kapitalizatsiya qilish uchun ruxsat etilgan qarzlar bo'yicha xarajatlar summasini aniqlashda bunday mablag'lardan olingan har qanday investitsiya daromadi amalga oshirilgan qarzlar bo'yicha xarajatlar summasidan chegirib tashlanishi kerak;

d) qarzlarni kapitalizatsiya qilish yoki moliyaviy xarajatlarga olib borish uchun buxgalteriya yozuvlarini BHMS – 21 "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy-xo'jalik

faoliyatining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi”dan foydalanish mumkin/

REFERENCES

1. BHMS – 6 “Ijara hisobi”. O‘zR Adliya vazirligida 2009 yil 24 aprelda 1946-son bilan ro‘yxatga olingan.
2. BHMS – 10 “Davlat subsidiyalarining hisobi”. O‘zR Adliya vazirligida 1998 yil 03 dekabrda 562-son bilan ro‘yxatga olingan.
3. BHMS – 24 “Qarzlar bo‘yicha xaratjatlar hisobi”. O‘zR Adliya vazirligida 2009 yil 18 avgustda 1996-son bilan ro‘yxatga olingan.
4. МСФО (IAS) 23 «Затраты по заимствованию». (введен в действие на территории Российской Федерации приказом Минфина России от 28.12.2015 № 217н).
5. Buxgalteriya hisobi: oliv ta’limning 5230100 – “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” va 5230200 – “Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A.A.Abduvohidov// prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: 2021. – 720 b.
6. Уразов К.Б., Пўлатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. – Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт – матбаа уйи, 2020, 558 бет.
7. Алисенов А.С. Бухгалтерский финансовый учет: теория и практика. Учебное пособие. – М.: 2013. – 414 с.
8. Бухгалтерский учет: Учебник для студентов вузов/ Ю.А. Бабаев, И.П. Комиссарова, В.А. Бородин; Под ред. проф. Ю.А.Бабаева проф. И.П. Комиссаровой. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – 527 с.
9. Мұхаметов А. и др. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИНИ ТУРКУМЛАШ ВА УЛАРНИНГ ҲИСОБИ //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2021. – №. 5. – С. 351-358.
10. Мухаметов, Абубакр Бобоевич, and Ақмал Абдулазизович Абдувоҳидов. "УЧЕТ ВОЗНАГРАЖДЕНИЯ РАБОТНИКАМ ПО МСФО." *Gospodarka i Innowacje*. (2022): 113-123.
11. Мухаметов, Абубакр Бобоевич, and Ақмал Абдулазизович Абдувоҳидов. "ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИ ҲИСОБИ." *Gospodarka i Innowacje*. (2022): 88-96.
12. Juliev, M., Ng, W., Mondal, I., Begimkulov, D., Gafurova, L., Hakimova, M., ... & Saidova, M. (2023). Surface displacement detection using object-based image analysis, Tashkent region, Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 386). EDP Sciences.
13. Rakhimov, D., Juliev, M., Agzamova, I., Normatova, N., Ermatova, Y., Begimkulov, D., ... & Ergasheva, O. (2023). Application of hyperspectral and multispectral datasets for mineral mapping. In E3S Web of Conferences (Vol. 386). EDP Sciences.